

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

4-MAXSUS SON

*Ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026
sentyabr-oktabr

Belarus–O'zbekiston

ilmiy-texnik hamkorligi: zamonaviy muhandislik
ta'limi, amaliy kvalifikatsiyalar va innovatsion
sanoat rivoji



ISSN: 3060-463X

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr/oktabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI: O'ZARO BOG'LIQLIK NAZARIYASI	9
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna	
THE IMPACT OF BUY NOW, PAY LATER SERVICES ON E-COMMERCE SALES	12
Maxmudova Munisaxon Abbos qizi	
ROUTE-LEVEL PROFITABILITY ZONES IN RAILWAY PASSENGER TRANSPORT	16
Eshboyev Ulugbek Farxodovich	
AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI: O'ZARO BOG'LIQLIK NAZARIYASI	20
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna	
ОПЕРАЦИОННАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАК ДРАЙВЕР ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ В УСЛОВИЯХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ ЭКОНОМИК: ЭМПИРИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ ООО «SIRDARYO MEGA LUKS»	23
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
PREPARING STATE-OWNED COMMERCIAL BANKS FOR PRIVATIZATION: INSTITUTIONAL TRANSFORMATION, CORPORATE GOVERNANCE, AND CAPITAL MARKET READINESS IN UZBEKISTAN..	28
Salamov Islam Tashkazakovich	
RAQAMLI TO'LOVLAR ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH: XITOIY TAJRIBASI VA MAKROFISKAL SABOQLAR.....	34
Shonazarov Ashurali Akabayevich	

RAQAMLI TO'LOVLAR ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH: XITOIY TAJRIBASI VA MAKROFISKAL SABOQLAR



Shonazarov Ashurali Akabayevich

Chirchiq shahar Iqtisodiyot va moliya bo'limi,
Byudjet daromadlarini prognozlashtirish
va tahlil qilish bo'yicha bosh mutaxassis

Annotatsiya. Ushbu tezisda Xitoy tajribasi asosida raqamli to'lovlarning yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish va soliq tushumlarini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli to'lovlar qamrovi, naqd pul ulushi hamda yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik panel ma'lumotlar asosida ekonometrik jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalari raqamli to'lov infratuzilmasini rivojlantirish va uni soliq ma'muriyatchiligi bilan integratsiya qilishning makrofiskal samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli to'lovlar, yashirin iqtisodiyot, soliq tushumlari, soliq ma'muriyatchiligi, e-CNY, mobil to'lovlar, ekonometrik model, Xitoy tajribasi.

Abstract. This thesis analyzes the role of digital payments in reducing the scale of the shadow economy and increasing tax revenues based on the experience of China. The relationship between digital payment coverage, the share of cash in circulation, and the shadow economy is assessed econometrically using panel data. The findings highlight the macrofiscal importance of developing digital payment infrastructure and integrating it with tax administration.

Keywords: digital payments, shadow economy, tax revenues, tax administration, e-CNY, mobile payments, econometric model, China's experience.

Аннотация. В данном тезисе на основе опыта Китая анализируется роль цифровых платежей в сокращении масштабов теневой экономики и увеличении налоговых поступлений. Взаимосвязь между охватом цифровыми платежами, долей наличных денег в обращении и теневой экономикой оценивается эконометрически на основе панельных данных. Результаты исследования подчеркивают макрофискальное значение развития инфраструктуры цифровых платежей и её интеграции с налоговым администрированием.

Ключевые слова: цифровые платежи, теневая экономика, налоговые поступления, налоговое администрирование, e-CNY, мобильные платежи, эконометрическая модель, опыт Китая.

Yashirin iqtisodiyot har qanday mamlakatda soliq bazasining qisqarishiga, raqobat muhitidagi nomutanosibliklarning yuzaga kelishiga hamda davlat byudjeti tushumlarining imkoniyatlarini cheklashga ta'sir etuvchi omillardan biridir. An'anaviy naqd pul muomalasining yuqori ulushi ayrim tranzaksiyalar va daromadlarning rasmiy hisobda to'liq aks etmasligi ehtimolini oshirishi mumkin.

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) oxirgi 15 yil davomida raqamli to'lov infratuzilmasini jadal rivojlantirgan mamlakatlardan biriga aylandi. Alipay va WeChat Pay kabi uchinchi tomon to'lov platformalarining ommalashuvi hamda keyinchalik e-CNY (raqamli yuan)ning joriy etilishi moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish bilan birga, iqtisodiy operatsiyalarning rasmiy va kuzatiladigan shaklda amalga oshirilishiga qo'shimcha imkoniyat yaratdi. [3] Ushbu tezisda Xitoyning raqamli to'lovlarga o'tish tajribasi, uning yashirin iqtisodiyot va soliq tushumlariga ta'siri hamda buni tasdiqlovchi ekonometrik model tahlil qilinadi.

Xitoy tajribasi: naqd puldan raqamli moliya ekotizimiga o'tish

Xitoyda raqamlashtirish jarayoni 2010-yillarning boshida QR-kod texnologiyasining chakana savdo va kichik biznesga kirib kelishi bilan boshlandi. Bu transformatsiyaning asosiy ustunlari quyidagilardan iborat: [3, 4]

- **POS-terminal xarajatlarning kamayishi:** Kichik tadbirkorlar va ko'cha sotuvchilari qimmatbaho bank terminallarini sotib olmasdan, oddiy QR-kod vositasida to'lovlarni qabul qila boshladi.
- **"Golden Tax System IV" (Oltin soliq tizimi):** Xitoy soliq organlari raqamli to'lov platformalari va elektron hisob-fakturalarni (e-fapiao) yagona soliq nazorati tizimiga integratsiya qildi.



Bu orqali har bir tranzaksiya real vaqt rejimida soliq idoralarida aks eta boshladi. [5]
• Tranzaksion shaffoflik: Naqd pulsiz to'lovlar ulushining ortishi savdo korxonalarining tushumlarini elektron shaklda qayd etish va ular bo'yicha ma'lumotlarning shaffofligini oshirish imkonini berdi.

Iqtisodiy va moliyaviy ta'sir tahlili

Raqamli to'lovlarning ommalashuvi Xitoy makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga, xususan, yashirin iqtisodiyot ulushiga va qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tushumlariga muayyan ta'sir ko'rsatgan.

1-jadval.

Xitoyda raqamli to'lovlar dinamikasi va yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari (2012–2024-yillar)¹

Ko'rsatkichlar / Yillar	2012-yil	2016-yil	2020-yil	2024-yil
Mobil to'lovlar hajmi (Trillion USD)	0.1	5.8	38.0	67.5
Mobil to'lovlar qamrovi (% aholi)	8.5%	41.2%	72.1%	86.4%
M0 / M2 nisbati (Naqd pulning pul massasidagi ulushi, %)	6.2%	4.3%	3.7%	2.8%
Yashirin iqtisodiyot ulushi (YIMga nisbatan, %)	12.8%	10.1%	8.3%	6.5%
QQS va Korporativ soliq tushumlari (Trillion Yuan)	3.8	6.1	9.2	13.4

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mobil to'lovlar hajmi 2012-yildagi 0,1 trillion dollardan 2024-yilga kelib 67,5 trillion dollarga yetgan. Naqd pulning (M0) umumiy pul massasidagi (M2) ulushi 6,2% dan 2,8% gacha tushishi yashirin iqtisodiyot hajmini YIMga nisbatan 12,8% dan 6,5% gacha qisqarishi bilan birga kuzatilgan. Bu soliq bazasining kengayishiga va davlat byudjeti tushumlarining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. [6, 7]

Ekonometrik model va statistik baholash

Raqamli to'lovlarning yashirin iqtisodiyotga ta'sirini empirik jihatdan baholash uchun Xitoyning 31 ta provinsiyasi bo'yicha 2012–2024-yillar oralig'idagi panel ma'lumotlar asosida eng kichik kvadratlar usuli (OLS / Fixed Effects Model) qo'llanildi. [8]

Regressiya tenglamasi:

$$\ln(\text{Shadow}_i) = \beta_0 + \beta_1 \ln(\text{DigitalPay}_i) + \beta_2 (\text{M0/M2}_i) + \beta_3 \ln(\text{GDP_cap}_i) + \varepsilon_i$$

Baholangan model natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval.

Raqamli to'lovlarning yashirin iqtisodiyotga ta'sirini baholovchi regressiya modeli natijalari²

Mustaqil o'zgaruvchilar	Koeffitsiyent (β)	Standart xatolik	t-statistika	p-qiyamat (p-value)
Aholining mobil to'lovlar qamrovi ()	-0.245	0.041	-5.97	< 0.001
Naqd pul intensivligi ()	+0.412	0.083	4.96	< 0.001
Aholi jon boshiga YIM ()	-0.118	0.035	-3.37	0.001
Konstanta ()	2.840	0.312	9.10	< 0.001
Model ko'rsatkichlari:		Kuzatuvlar soni (N) = 403	F-statistika = 124.5 (p < 0.001)	

Model natijalarining iqtisodiy talqini:

Mobil to'lovlar qamrovi ($\beta_1=-0.245$): Mobil to'lov tizimlari bilan qamrab olingan aholi ulushi 1% ga oshganda, yashirin iqtisodiyot hajmi o'rtacha 0.245% ga qisqaradi (p < 0.001 darajasida statistik ahamiyatli).

Naqd pul intensivligi ($\beta_2=+0.412$): Muomaladagi naqd pul ulushi (M0/M2) 1 foiz bandga oshishi yashirin iqtisodiyot ulushini 0.412 foiz bandga oshiradi.

1 Manba: Xitoy Xalq Banki (PBoC), IMF Working Papers va Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallifning panel ma'lumotlar asosidagi ekonometrik hisob-kitoblari.



$R^2=0.814$: Model yashirin iqtisodiyotdagi o'zgarishlarning 81.4 foizini tanlangan o'zgaruvchilar orqali tushuntirib beradi.

Xitoy amaliyoti shuni ko'rsatadiki, naqd puldan raqamli to'lovlarga bosqichma-bosqich o'tish aholiga va biznes subyektlariga qulaylik yaratish bilan birga, davlat moliya tizimida shaffoflikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Ma'muriy choralarni iqtisodiy rag'batlar bilan uyg'unlashtirish: Faqatgina ma'muriy taqiqlar bilan yashirin iqtisodiyotni yo'qotib bo'lmaydi. Xitoy kabi kichik va mikro-biznes subyektlari uchun raqamli to'lovlarni qabul qilish xarajatlarini (komissiya va terminal narxлари) imkon qadar kamaytirish maqsadga muvofiq.

1. Soliq tizimi bilan integratsiya: Bank va to'lov tizimlarida shakllanadigan ma'lumotlarni soliq organlarining tahliliy tizimlari bilan samarali integratsiya qilish soliq ma'muriyatchiligining tezkorligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Infratuzilma barqarorligi: To'lov tizimlarining uzluksiz va xavfsiz ishlashi iste'molchilarning raqamli to'lov vositalariga bo'lgan ishonchini oshirish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblardan foydalanishni kengaytirishning muhim omillaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli to'lovlarni rivojlantirish makroiqtisodiy va fiskal islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi kompleks chora-tadbirlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. [1, 4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schneider F., Buehn A., Montenegro C. E. Shadow Economies All over the World: New Estimates for 162 Countries from 1999 to 2007 // World Bank Policy Research Working Paper. – Washington, D.C.: World Bank, 2010. – No. 5356. – DOI: 10.1596/1813-9450-5356.
2. Medina L., Schneider F. Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? // IMF Working Paper. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2018. – No. WP/18/17. – 76 p. – DOI: 10.5089/9781484338636.001.
3. People's Bank of China. China Financial Stability Report 2023. – Beijing: People's Bank of China, 2023.
4. Wang X. Mobile Payment and Informal Business: Evidence from China's Household Panel Data // China & World Economy. – 2020. – Vol. 28, No. 3. – P. 90–115. – DOI: 10.1111/cwe.12334.
5. Fan H., Liu Y., Qian N., Wen J. Technological Adoption and Taxation: The Case of China's Golden Tax Reform // Tax Policy and the Economy. – 2024. – Vol. 38. – P. 101–122. – DOI: 10.1086/730053.
6. International Monetary Fund. People's Republic of China: 2024 Article IV Consultation—Press Release; Staff Report; and Statement by the Executive Director for the People's Republic of China. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2024. – IMF Country Report No. 24/258. – 137 p. – DOI: 10.5089/9798400284281.002.
7. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, D.C.: World Bank, 2022. – DOI: 10.1596/978-1-4648-1897-4.
8. Wooldridge J. M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. – 2nd ed. – Cambridge, MA: The MIT Press, 2010. – 1096 p. – ISBN 978-0-262-23258-6.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100